



# PEDAGOGIK AKMEOLOGIYA

xalqaro ilmiy-metodik jurnal

MS  
2022





ISSN 2181-3787  
E-ISSN 2181-3795

**“PEDAGOGIK AKMEOLOGIYA”**  
xalqaro ilmiy-metodik jurnal

**«ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ АКМЕОЛОГИЯ»**  
международный научно-методический журнал

**“PEDAGOGICAL ACMEOLOGY”**  
international scientific-methodical journal

**maxsus son**  
**2022**

## Jurnal haqida

*"Pedagogik akmeologiya" xalqaro ilmiy-metodik jurnali*

"Pedagogik akmeologiya" xalqaro ilmiy-metodik jurnaliga taqdim etilgan ilmiy maqolalarga qo'yiladigan asosiy talablar falsafa doktori (PhD), fan doktori (DSc) dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini xalqaro standartlar va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Oliy attestatsiya komissiyasi to'g'risidagi Nizom talablari, shu jumladan elektron ilmiy-texnik jurnallarga qo'yiladigan talablar tizimi hisoblanadi.

*«Педагогическая акмеология» международный научно-методический журнал*

Основные требования к научным статьям, представляемым в международном научно-методическом журнале *«Педагогическая акмеология»* являются научные труды, рекомендованные для публикации основных научных результатов докторских (PhD), (DSc) диссертаций в соответствии с международными стандартами и «Положением о Высшей аттестационной комиссии» при Кабинете Министров Республики Узбекистан, в частности требования к электронным научно-техническим журналам.

## About the magazine

*"Pedagogical akmeology" international scientific-metodical journal*

The main requirements for scientific articles submitted to the international scientific-metodical journal "Pedagogical akmeology" are scientific publications recommended for the publication of the main scientific results of doctoral (PhD), (DSc) dissertations in accordance with international standards and the "Regulation on the Higher Attestation Commission" Under the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan, including from templates in the system of requirements for electronic scientific and technical journals.

**Muassislar:** "Sadridin Salim Buxoriy" MCHJ "Durdona" nashriyoti,  
Buxoro davlat pedagogika instituti

**Tahririyat manzili:** O'zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko'chasi,  
11-uy

**Web-sayt:** [www.paresearchjournal.uz](http://www.paresearchjournal.uz)

**Bosh muharrir:**

Daminov Mirzohid Islomovich, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

**Bosh muharrir o'rinbosari:**

Hamroyev Alijon Ro'ziqulovich, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

**Mas'ul kotib:**

Bafayev Muhiddin Muhammadovich, psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),  
dotsent

**TAHRIR HAY'ATI:**

*Muqimov Komil Muqimovich, O'zR FA akademigi, fizika-matematika fanlari doktori, professor*

*Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor*

*Adizov Baxtiyor Rahmonovich, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Ibragimov Xolboy Ibragimovich, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Abdullayeva Barno Sayfiddinovna, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Yanakiyeva Yelka Kirilova, pedagogika fanlari doktori, professor (N. Rilski nomidagi Janubiy-G'arbiy Universitet, Bolgariya)*

*Madzigon Vasiliy Nikolayevich, akademik, pedagogika fanlari doktori, professor (Ukraina pedagogika fanlari milliy akademiyasi, Kiyev)*

*Maksimenko Sergey Dmitriyevich, psixologiya fanlari doktori, professor (Ukraina pedagogika fanlari milliy akademiyasi, Kiyev)*

*Chudakova Vera Petrovna, psixologiya fanlari nomzodi (Ukraina pedagogika fanlari milliy akademiyasi, Ukraina)*

*Kozubsov Igor Nikolayevich, pedagogika fanlari doktori, dotsent (Kiyev, Ukraina)*

*Mustafa Said Arslon, filologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)*

*Tadjixodjeyev Zokirxo'ja Abdusattorovich, texnika fanlari doktori, professor*

*To'xsanov Qahramon Rahimboyevich, filologiya fanlari doktori, dotsent*

*Muhitdinova Xadicha Sobirovna, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Niyozmetova Roza Hasanovna, pedagogika fanlari doktori, professor*

*O'rayeva Darmonoy Saidaxmedovna, filologiya fanlari doktori, professor*

*Rasulov To'lqin Husenovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor*

*Hayitov Shodmon Axmadovich, tarix fanlari doktori, professor*

*To'rayev Halim Hojiyevich, tarix fanlari doktori, professor*

*Mahmudov Nosir Mahmudovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor*

*Bo'taboyev Muhammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor*

*Ibragimova Gulsanam Nematovna, pedagogika fanlari doktori, dotsent*

*Kadirov Xayot Sharipovich, pedagogika fanlari doktori, dotsent*

*Jalilova Saboxat Xalilovna, psixologiya fanlari nomzodi, dotsent*

*Atabayeva Nargis Batirovna, psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

*Muxtorov Erkin Mustafoyevich, psixologiya fanlari nomzodi, dotsent*

*Jumaniyozova Muhabbat Husenovna, filologiya fanlari nomzodi, dotsent*

*Farmonova Shabon Muhammadovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

*Qo'ldoshev Rustambek Avezmurodovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*

**MUNDARIJA**

Boboyeva Muyassar Norboyevna. Matematika fanini o'qitish jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanish.....	6
Rasulov To'liq Husenovich, Mamurov Boboxon Jo'rayevich. Matematika: oliy ta'lim va maktablar hamkorligining zamonaviy yo'nalishlari.....	13
Tabassum Saleem, Rasulov To'liq Husenovich, Umarova Umida Umarovna. About the organization of distance education in universities of Uzbekistan and Pakistan.....	20
Dilmurodov Elyor Baxtiyorovich, Yaxyoyeva Sharofat Mirmuxsin qizi. Matematik masalalar va tenglamalar mavzusini o'qitish xususiyatlari .....	28
Latipov Hakimboy Mirzo o'g'li. Matematika darslarida interfaol metodlardan foydalanib kompleks son dan kvadrat ildiz chiqarish mavzusini o'qitish.....	34
Rashidov Anvarjon Sharipovich. Ko'pyoqlar va ularning sodda kesimlarini yasash mavzusini interfaol metodlar yordamida o'qitish .....	39
Jo'raqulova Farangis Murot qizi. Ikki to'g'ri chiziq va kesuvchi hosil qilgan burchaklar mavzusini o'qitishda interfaol metodlar.....	45
Sharipova Mubina Shodmonovna. Sodda irratsional tengsizliklarni yechish usullari.....	50
Ismoilova Dildora Erkinovna, Sharipova Mubina Shodmonovna. Algebraik kasrlarni ko'paytirish va bo'lish mavzusini o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari .....	56
Rashidov Anvarjon Sharipovich, Latipov Hakimboy Mirzo o'g'li. Silindrning hajmi mavzusini o'qitishda interfaol metodlar .....	62
Бобоева Муяссар Норбоевна, Марданова Феруза Ядгаровна. “Чизиқли тенгламалар системаси” мавзусини ўқитишда муаммоли таълим технологияси ва “зинама-зина” методини қўллаш .....	67
Xayitova Xilola G'afurovna, Sayliyeva Gulrux Rustam qizi. Funksiyaning o'sishi va kamayishi mavzusini o'qitishda interfaol metodlar .....	75
Xayitova Xilola G'afurovna. Tanlash usuli bilan kombinatorika masalalarni yechish metodikasi.....	81
Умарова Умида Умаровна. Масофавий таълимда айрим электрон дидактик таъминот воситалари.....	86
Sayliyeva Gulrux Rustam qizi. Fazoda Dekart koordinatalar sistemasi mavzusini o'qitishda interfaol usullar .....	92
Ахмедов Олимжон Самадович. Эффективные аспекты применения информационных и коммуникационных технологий при обучении математики .....	98
Ismoilova Dildora Erkinovna, Bir noma'lumli tengsizliklar va uni o'qitish metodikasi .....	108
Сафар Ходжиев, Наргиза Жўраева. Некоторые указания и решением текстовые задачи связанные с работой .....	114
Xodjiyev Safar, Jo'rayeva Nargiza Oltinboyevna. Parametrlil kvadrat tenglamalar va ularni yechish usullari.....	123
Raupova Mokhinur Haydar kizi. Benefits of computerized learning systems in mathematics .....	133
Dilmurodov Elyor Baxtiyorovich, Qurbonov G'ulomjon G'afurovich. Natural sonlarni qo'shish mavzusini o'qitishning afzalliklari.....	138
Dilmurodov Elyor Baxtiyorovich. Uchburchak tengsizligi mavzusini interfaol usullar yordamida o'qitish metodikasi.....	145
Do'stova Shahlo Baxtiyorovna. O'nli kasrlarni qo'shish va ayirish mavzusini interfaol usullar va aktdan foydalanib o'tish .....	151
Avezov Alijon Xayrulloevich, Nuriddinova Nigina Zamon qizi. Chizg'ich va sirkul yordamida geometrik masalalarni yechishni o'rganish bo'yicha metodik tavsiyalar.....	161

---

Rasulov Xaydar Raupovich. Absolyut uzluksiz funksiyalar mavzusini o'qitishda ayrim metodik tavsiyalar.....	168
Bahronov Bekzod Islom o'g'li, Jo'raqulova Farangis Murot qizi. Aralash sonlarni qo'shish va ayrish mavzusini o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari.....	180
Avezov Alijon Xayrulloevich. Oliy matematika fanini o'qitishdagi innovatsiyalar va ilg'or xorijiy tajribalar.....	185
Марданова Феруза Ядгаровна. Математика faninig tabiiy fanlar bilan bog'liqligi haqida.....	193
Ахмедов Олимжон Самадович, Жумаева Чарос Илхомжон кизи. Основы и способы развития речемыслительной деятельности школьников при обучении математике.....	199
Do'stova Shahlo Baxtiyorovna, To'xtamishova Gulnora Mels qizi. Olimpiada masalalarini yechish usullari.....	207
Sayfullayeva Dilafro'z Ahmadovna, Mirzaqulova Nodira Ibragimovna. Texnologiya fani o'qituvchilarini kreativ, kasbiy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari.....	216
Akobirova Madina Bo'ronovna, Sayfullayeva Dilafro'z Axmadovna. Texnologik ta'lim yo'nalishida xalq hunarmandchiligi va badiiy loyihalash fanini innovatsion texnologiyalardan foydalanib xorijiy tilda o'qitish.....	224
Akobirova Madina Bo'ronovna. Texnologiya fanlarini o'qitishda ingliz tilining ahamiyati.....	230
Karimova Mahbuba Nutfullayevna. Innovatsion texnologiyalardan foydalanib bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish.....	235
Jo'raev Akmal Razzoqovich, Rasulova Zilola Durdimurotovna. Oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonlarini elektron ta'lim resurslardan foydalanib tashkil etish imkoniyatlari.....	240
Rasulov To'liqin Husenovich. Ishorasi aniqlanmagan ichki ko'paytmalar haqida ayrim mulohazalar.....	247
Раупова Мехринигор Хайдаровна. Педагогик амалиёт жараёнида бўлажак биология ўқитувчисининг квазипрофессионал фаолиятга тайерлаш методикаси.....	252
Mo'minova Sevara Faxriddinovna. Psixologning o'rta va o'rta maxsus ta'lim tizimidagi faoliyati.....	264
Jo'raev Akmal Razzoqovich, Xalloqova Oygul Olimovna. Texnologiya darslarini pedagogik texnologiya asosida tashkil etish.....	271
Ориф Хамраевич Узиков. Профессиональная компетентность - это качества присущие самым успешным работникам.....	279
Мухидова Олима Нуриллоевна. Конструирование женского платья по инструкционно-технологическим картам.....	286
Quliyeva Shahnoza Halimovna. Texnologiya darslarida tanqidiy fikrlashni rivojlantiruvchi texnologiyalardan foydalanish.....	295

**Sayfullayeva Dilafro'z Ahmadovna**

Buxoro davlat universiteti Elektronika va texnologiya kafedrasida dotsenti

ORCID - 0000-0002-0980-5812

**Mirzaqulova Nodira Ibragimovna**

Buxoro davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

ORCID - 0000-0001-1007-8065

---

## TEKNOLOGIYA FANI O'QITUVCHILARINI KREATIV, KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART- SHAROITLARI

---

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada texnologiya fani o'qituvchilarini kreativlik kompetentligini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari, didaktik jihatlari, kreativ sifatlari, shaxsiy sifatlari bayon etilgan. Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining tikuvchilikka oid kreativligini rivojlantirishda o'qitish jarayonining tashkil etish sharoitlari bo'yicha tasavvurlarni shakllantirish hamda texnologik bilim, ko'nikma, malakaga va moslashishi haqida fikrlar bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** Kreativlik, motivatsiya, fikrlash, kasbiy, kompetentligi, rivojlantirish, pedagogik shart-sharoitlar, didaktik jihatlari, kreativ sifatlari, shaxsiy sifatlari, amaliy bilim, ko'nikma, malaka, moslashish.

### ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСКОЙ, ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ УЧИТЕЛЕЙ ПРЕДМЕТА ТЕХНОЛОГИИ

**Сайфуллаева Дилафруз Ахмадовна**

доцент кафедры электроники и технологии

Бухарского государственного университета

ORCID - 0000- 0002-0980-5812

**Мирзакулова Нодира Ибрагимовна**

самостоятельный исследователь Бухарского государственного университета

ORCID - 0000-0001-1007-8065

**Аннотация.** В статье описаны педагогические условия, дидактические аспекты, творческие качества, личностные качества развития творческой компетентности учителей технологии, изложены представления о формировании идейно-технологических знаний, умений, компетентности и адаптации.

**Ключевые слова:** творчество, мотивация, мышление, профессиональный, компетентность, развитие, педагогические условия, дидактические аспекты, творческие качества, личностные качества, практические знания, умения, компетентность, адаптация.

### PEDAGOGICAL CONDITIONS FOR THE DEVELOPMENT OF CREATIVE, PROFESSIONAL COMPETENCE OF TECHNOLOGY TEACHERS

**Sayfullaeva Dilafruz Ahmadovna**

Associate Professor, Department of Electronics and Technology of Bukhara State University

ORCID - 0000- 0002-0980-5812

**Mirzaqulova Nodira Ibragimovna**

Independent researcher of Bukhara State University

ORCID - 0000-0001-1007-8065

**Annotation.** *The article describes the pedagogical conditions, didactic aspects, creative qualities, personal qualities of the development of creative competence of technology teachers, outlines ideas about the formation of ideological and technological knowledge, skills, competence and adaptation.*

**Key words:** *Creativity, motivation, thinking, professional, competence, development, pedagogical conditions, didactic aspects, creative qualities, personal qualities, practical knowledge, skills, competence, adaptation.*

## **KIRISH**

Bugungi kunda mamlakatimizda bo'lajak o'qituvchilar kreativ, kommunikativ, ochiqlik, ma'lumot darajasi hamda ijtimoiy mavqega ega bo'lgan turli yoshdagi shaxslar bilan muomala qilishning turli xil variantlariga tayyor, boshqalarga namuna bo'lishi kerakligi ta'kidlanmoqda. Shunga ko'ra, mutaxassis kadrlarni tayyorlashning zamonaviy tizimida ta'lim jarayonlarini loyihalashtirish ko'nikmasini rivojlantiradigan psixologik-pedagogik va kasbiy-ijodiy yo'nalishlarni integratsiyalash negizida bo'lajak mutaxassisning kasbiy kompetentligini shakllantirishga alohida urg'u berilmoqda. Bu esa bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilari moslashuvchan, dinamik, o'ziga xos ijodkor bo'lishi, innovatsion kasbiy faoliyat olib borishi uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyoda innovatsion rivojlanishning global vazifalaridan biri insonlarda kreativlikni shakllantirishdir. Bunda yangi g'oyalar ishlab chiqarish, murakkab jarayonlarda yechim topa bilish, kasbiy faoliyatga ijodiy yondashish, oqilona tavakkalchilikka bo'lgan qobiliyat, kasbiy barkamollik kabi harakatlar nazarda tutiladi. Jahon miqyosida pedagog kadrlarining ijodiy salohiyati, texnologik kompetentligi va kreativligini rivojlantirish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va dasturlari orqali o'qitishning innovatsion texnologiyalardan kompleks foydalanish orqali ijtimoiy-iqtisodiy yuksalishning intellektual resurslarini hamda ta'lim mazmuniga mos o'qitishning zamonaviy o'quv-metodik ta'minotini ishlab chiqish, o'quv materiallarini mazmunan takomillashtirish zaruriyati yuzaga kelmoqda. Mazkur zaruriyatdan kelib chiqib, bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining tikuvchilikka oid kreativligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish, zamonaviy didaktik vositalarini ishlab chiqish, elektron ta'lim resurslaridan, innovatsion texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish hamda o'quv-uslubiy ta'minot tizimini shakllantirish dolzarb vazifalardan biridir.

## **ASOSIY QISM**

Talabalarning kreativligini rivojlantirish va innovatsiyalarni yaratishga yo'naltirish, muammoli faoliyat turlarini amaliy tahlil qilish, muammolarni mustaqil anglash, o'z imkoniyatlarini rivojlantirishga sarflash - kreativ o'qitishning maqsadi hisoblanadi va aynan kreativ o'qitishga bo'lgan ehtiyojni talab qiladi. Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining kreativ kompetentligini va pedagogik mahoratini rivojlantirish hamda ularning ijodiy fikrlashini kreativ o'qitish metodlari va innovatsion texnologiyalari yordamida takomillashtirish ahamiyatlidir [1].

O'qitish jarayonining vazifasi ta'lim tarbiya va rivojlanish birligini ta'minlashni nazarda tutadi. Ta'lim beruvchilarning ilmiy-nazariy va amaliy bilimlarini oshirishda ularning kasbga bo'lgan qiziqishi va pedagoglarini kreativligini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Kreativlik tushunchasi (lot. ing. «create» yaratish, «creative» yaratuvchi, ijodkor) ingliz tilidan tarjima qilganda ijod ma'nosini anglatadi. Haqiqattan esa yangi original (o'ziga xos) yanada sayqallangan moddiy va ma'naviy bog'liqliklarni yaratishdir. Kreativlikni: ijodga intilish, hayotga ijodiy yondashish, o'ziga doimiy tanqidiy nazar solish va tahlil etish deyish mumkin. Pedagogik faoliyatda kreativlikning ahamiyatini «Kreativlik» va «pedagogik kreativlik» tushunchalarining mohiyatida, kreativlik sifatlarda, kreativlikni rivojlantirish shartlarida ko'rishimiz mumkin. Bo'lajak pedagoglarni kreativlikni shakllantirish shartlarini keltiramiz. Bo'lajak pedagoglarni kreativlikni shakllantirish shartlari:

- ✓ qiziqarli, murakkab vazifalar, aniq maqsad va vaqt bilan ta'minlash;
- ✓ kreativlik hissini yuzaga keltirishini anglatish;



- ✓ bezovtalik va qo'rqov hissida xalos bo'lishga yordam bershi
- ✓ kreativ fikrlash ko'nikmalarini boshqa ko'nikmalar bilan rivojlantirishga yordam berish;  
Kreativlik-ta'lim jarayonini tashkillashtirishni o'zida mujassamlashtirib, kreativ o'qitish jarayonini shakllantirish, kreativ o'qitish metodlari va innovatsion texnologiyalari orqali kasbiy-texnologik bilimlar olish va kreativ salohiyatni oshirish, turli uslublardan ko'nikmalar muvozanatini rivojlantirishda foydalanish, talabalarning ta'lim dasturlarini shakllantirishda faol ishtirok etishni o'z ichiga oladi [2-5].

Ta'lim mazmuni darajasi insonlarning tabiat, jamiyat, insoniyat haqidagi bilimlariga, inson imkoniyatlari natijasida yaratilgan faoliyat turlari yuzasidan egallagan bilimlariga va muammolarni yangicha yechimini topish, dunyoni anglash kabi qobiliyatlariga qarab aniqlanadi. Shuning uchun bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilari tahsil olayotgan texnologik ta'lim yo'nalishi o'qituvchilarini kreativligini oshirish uchun ularning professional kreativligini rivojlantirishda motivatsiya alohida o'rin tutadi. Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining tikuvchilikka oid kreativligini rivojlantirishda motivatsiyaning turli usullaridan foydalanadi. Ularni tanlab olishda fan va texnikaning eng so'ngi yutuqlari va kashfiyotlaridan foydalanish kerak. Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchisi tikuvchilikka oid kreativligini rivojlantirishi uchun qilayotgan ish mazmunini yaqqol tasavvur qilgandagina ishga ongli ravishda kirishadi.

Texnologiya ta'limida izchillik tamoyili bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilari tikuvchilikka oid kreativ rivojlantirishda didaktika qoidalariga amal qilishni talab etadi: Oddiydan murakkabga, ma'lumdan noma'lumga. Mavzularni o'tishda yoki texnologik muammolarni yechishda o'qituvchi darsni shunday rejalashtirishi kerakki, o'qituvchilarning hammalariga tushunarli bo'lishi kerak. Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarini tikuvchilikka oid kreativ rivojlantirishda yoshi va individual xususiyatlari hisobga olinishi talab etiladi. Buning uchun esa o'qituvchi o'z ilmiy saviyasini izchil ravishda oshirib borishi zamonaviy pedagogik texnologiyalar, kashfiyotlar va ilmiy yangiliklardan xabardor bo'lishi lozim. Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilari tikuvchilikka oid o'rganayotgan bilimlar, albatta nazariy tasdiqlangan va amalda sinalgan bo'lishi kerak.


Yuqoridagi tamoyillarga muvofiq, barcha o'quv modullari doirasida 5112100-Texnologik ta'lim yo'nalishi talabalarini kreativ o'qitishning mazmuni takomillashtirildi.

5112100-Texnologik ta'lim yo'nalishi bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarini tikuvchilikka oid kreativligi: 1) kreativ o'qitish uchun maxsus tashkiliy - pedagogik shartlar; 2) innovatsion ta'lim texnologiyalari va pedagogik kompetentlik» moduli mashg'ulotlarida bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining tikuvchilikka oid kreativligini rivojlantirish metodikasi ishlab chiqilsa ortadi [1].

Tashkiliy-pedagogik shartlar deganda biz, muayyan metodologiyani qo'llash samaradorligi bilan bog'liq bo'lgan zarur va yetarli darajada muhim shartlar majmuini nazarda tutmoqdamiz. Tashkili-pedagogik shartlarning zaruriyati pedagogik-psixologik, o'quv metodik adabiyotlar, moddiy texnik ta'minoti, o'quv laboratoriya xonalari, bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining tikuvchilikka oid kreativligini rivojlantirish oliy o'quv muassasalarida o'quv modullari bo'yicha olib borilgan tahlillar natijasida ifodalanadi.

Pedagogik va texnik bilimlarning integratsiyasi asosida bo'lajak kasb fani o'qituvchisini tayyorlash, uning kasbiy-pedagogik faoliyatini modellashtirish, kasb fani o'qituvchisini tayyorlash jarayonini standartlashtirishning metodologik asoslari, kasbiy pedagogik shakllanganlik darajasini baholashdir 5112100-Texnologik ta'lim yo'nalishi talabalarida tikuvchilikka oid kreativ rivojlantirishni amalga oshirish uchun quyidagi tashkiliy-pedagogik shartlarning bo'lishi talab qilinadi:

Yuqorida berilgan har bir tashkiliy - pedagogik shartlarga alohida to'xtalamiz.



**Birinchi shart.**

Motivatsiya - bu har bir faoliyatga, jarayonga, harakatga sabab bo'lgan turtki. Shuning uchun bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilari tahsil olayotgan texnologik ta'lim yo'nalishi o'qituvchilarini kreativligini oshirish uchun ularning professional kreativligini rivojlantirishda motivatsiya alohida o'rin tutadi. Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining tikuvchilikka oid kreativligini rivojlantirishda motivatsiyaning turli usullaridan foydalanadi. Har bir mashg'ulotda talabalarining ijobiy his - tuyg'ularga duch kelishi muhimdir, shundagina u o'ziga bo'lgan ishonchga ega bo'ladi va ta'limga bo'lgan qiziqishi ortadi.

**Ikkinchi shart.**

Fikrlash - bu ong, xulq-atvori, ichki aqliy harakatlar va davlatlar, o'z tajribasi, shaxsiy tarkibi mavzusida o'z-o'zini tahlil qilish jarayoni va natijasi. Fikrlash orqali shaxs o'z harakatlarini tahlil qiladi (muvaffaqiyatli yoki muvaffaqiyatsiz). Bunda o'z - o'zini boshqarish va nazorat qilish mexanizmlari aks ettirilgan. Fikrlash yordamida ta'sirning qanchalik izchil, maqsadga muvofiq va samarali ekanligi va oldindan rejalashtirilgan natijaga qanchalik erishilganligi aniqlanadi.

**Uchinchi shart.**

Tashkiliy-pedagogik shartlarning beshinchi shartini bajarish uchun pedagogik innovatsiyaga asoslangan o'quv - uslubiy ta'minot yaratilishi lozim.

O'quv jarayonini o'quv-uslubiy ta'minoti bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarning tikuvchilikka oid o'quv faoliyati uchun asosiy darsliklar, o'quv qo'llanmalari va axborot resurslarini o'z ichiga oladi, ya'ni o'quv jarayonini tashkil etish uchun qo'llanmalar va axborot resurslarining to'plami, o'quv jarayonini amalga oshirish uchun moddiy-texnika shart-sharoitlari majmui.

O'quv jarayonini o'quv-uslubiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, o'quv-uslubiy ta'minotlarni ishlab chiqish, o'quv texnologiyalarini rivojlantirish va innovatsion ta'lim texnologiyalarini joriy etishni nazarda tutadi.

O'quv-metodik majmua o'qitishning barcha me'yoriy va didaktik jihatlarini o'z ichiga qamrab oladi. Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilari tikuvchilikka oid kreativ sifatlarga ega bo'lishlari uchun o'quv faoliyatida, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladigan g'oyalarni yaratishda faollik ko'rsatish, ularning ilg'or pedagogik yutuq va tajribalarni mustaqil o'rganish, shuningdek, texnologik bilim, ko'nikmalarni egallashlariga e'tibor qaratildi.

Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining tikuvchilikka oid kreativligini rivojlantirishda o'qitish jarayonining tashkil etish sharoitlari bo'yicha tushuncha va tasavvurlarni shakllantirish hamda texnologiya ta'limi praktikumi fanini o'qitishda ma'lum jihatlariga tayyorgarlik ko'rish shuningdek, texnologik bilim, ko'nikma, malakaga va moslashishi muhim ma'lumotlarni inobatga olishi orqali amalga oshadi.


Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarning tikuvchilikka oid kreativ ijodkorligiga baho berish, ta'lim sharoiti bilan tanishish, tikuvchilik sohani yaxshi bilish shuningdek, texnologik bilim, ko'nikmalarni bilishi bularning hammasi nazariy va amaliy mashg'ulotga tegishlilik shart-sharoit haqidagi ma'lumotlar sanaladi.

Nazariy va amaliy mashg'ulotlar shart-sharoitini 3 xil tahlil orqali aniqlash mumkin:



Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining o'qishga bo'lgan ehtiyoji amaliyot o'qituvchisi tomonidan qondirilishi lozim. Bu bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining kelajakdagi kasbiy faoliyati uchun kerakli bilim, ko'nikmalarni rivojlantirishga va xulqini yaxshilashga bo'lgan ehtiyojdir. Amaliyot o'qituvchisiga qo'yiladigan talab ham mashg'ulotlar davomida uning o'zi eng yaxshi natijalarga erishishiga qaratilishi lozim.

Uning mashg'ulotlari samarali, sifatli va har bir o'quv jarayoniga iloji boricha moslashtirilgan bo'lishi kerak. Ko'p hollarda amaliyot o'qituvchisi tomonidan mashg'ulotlarning sifati bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarini o'zlashtirgan bilimlarga berilgan baho bilan o'lchanadi.



Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarini kreativ rivojlantirishning huquqiy shart-sharoitlari ta'lim jarayoniga taalluqli bo'lgan o'quv rejasi va boshqa me'yoriy hujjatlari bilan bog'liqdir [3].

Ularga quyidagilar kiradi:

- + kasbiy yo'nalish yoki mutaxassislik o'quv rejasi;
- + o'quv rejasiga mos fan dasturi;
- + o'quv rejasiga mos ta'lim kursi;
- + mavzu, amaliy ko'nikmalar;
- + bilim va ko'nikmalarni baholash mezonlari.

Bu orqali kutilgan va o'quv-me'yoriy hujjatlarida oldindan belgilab qo'yilgan mavzular o'rgatilishi ta'minlab berilishi kerak.


- + kasb-hunar guruhi
- + o'quv-didaktik materiallar
- + sinf taxtasi, «flipchart», «Pinvand»lar
- + proektorlar, videoapparatlar
- + jihoz, asbob va uskunalar
- + o'qish joyi
- + o'qish vaqti va davomi

Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarini kreativ rivojlantirishning tashkiliy shart - sharoitlari umumkasbiy fanlar bo'yicha mashg'ulotlarni tashkil qilish borasidagi quyidagi zaruriy talablar kiradi:

- ✚ o'qitish joyini tanlash;
- ✚ dars va amaliy mashg'ulotlar vaqti va davom etishi;
- ✚ amaliy namoyishlarga tayyorgarlik ko'rish;
- ✚ tashkiliy hujjatlar va ish joyini tayyorlash.

Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarini kreativ rivojlantirishning texnik shart-sharoitlarga fan bo'yicha jildlar va moslamalar, yordamchi audiovizual vositalar, o'qitish va o'rganish vositalari (doska, flipchart, proektor, videomagnitafon)ning mavjudligi va ularning yaroqliligi, shuningdek, elektr toki, suv, havo bosimi va hokazolarning borligi bilan uzviy bog'liqdir. Dars olib boruchi o'qituvchisi zaruriy shart-sharoitlar mavjudligiga va texnik moslamalarni istalgan paytda ishlatish mumkinligiga ishonch hosil qilishi kerak.

1-sxema



Ushbu tahlil amaliy mashg'ulotlar mazmunlarini tanlash, mo'ljallangan maqsadlarga erishish va kerakli vaqt doirasini belgilash uchun zarurdir. Maqsad esa mazmuni belgilaydi.

Tikuvchilik sohasi misolida

Tikuvchilik sohasiga oid texnologik xaritalar ishlab chiqish xuddi shunday mavjud tarkibiy qismlariga ham bog'liq bo'lishi mumkin. Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchisi fan bo'yicha ham mavzular tuzilmasini tayyorlashi lozim.

Ko'pincha mavzu jihatlarni to'plash bilan boshlanadigan quyidagi bosqichlar bu borada yordam beradi:

1. Mavzu doirasidagi o'rgatiladigan dalillar;
2. Dalillar bilan bog'liq tushunchalar;
3. Dalillarni o'zaro bog'laydigan tamoyillar (funksional aloqadorlik, qoidalar);
4. O'rgatiladigan usullar ( texnologik jarayonlar, amallar).

Biz bu yerda bilim, qobiliyat va ko'nikmalarga qisqacha to'xtalamiz.

Bilim - bu o'zlashtirilgan va xotirada saqlangan ma'lumotlar bo'lib, uni tez va aniq biror holatga mos ravishda ishlatish mumkin. Bilim quyidagi 4 turdan tuzilgan:

- ✓ Dalil o'qitish ob'ektini anglash va to'g'ri belgilash demakdir.
- ✓ Tushuncha o'rganilgan dalilni tushuntirish, ta'riflash, tasniflashdir.

✓ Tamoyil qabul qilingan qoidalardir. U bir yoki bir qancha tushunchalar o'rtasidagi munosabatni ifodalaydi.

Jarayon paytida amalga oshiriladigan bosqichlar ketma-ketligi usul deyiladi.

Bilim bilan birga qobiliyat, ko'nikmalar va xulq ham o'rganiladi.

Qobiliyat va ko'nikmalar - bu bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarning tikuvchilikka oid kreativligi muayyan faoliyatni muvaffaqiyatli olib borishi uchun shart-sharoitlar yaratib beruvchi, tashqaridan kuzatish mumkin bo'lgan harakatlar va ta'sirlar hisoblanadi.

Ko'nikmalar ongli ravishda amalga oshirilgan faoliyatning tarkibiy qismiga kiruvchi avtomatik tarzda yuz beradigan harakatlardir.

Qobiliyat va ko'nikmalarga kognitiv va psixomotorik o'rganish sohasida quyidagicha ta'rif beriladi. Bu insonning o'z atrof-muhitiga faoliyat orqali munosabatda bo'lishidir, bunda kuzatsa bo'ladigan va kuzatsa bo'lmaydigan - ichki munosabat, shaxsiy tajriba va qadriyatlar, e'tiqod, hissiyot va mayllar muhim o'rin tutadi.

Amaliy mashg'ulot uchun mo'ljallangan ta'lim hujjatlari asosan harakatlarga yo'naltirilgan tarzda tuziladi. Ular misol uchun ma'lum bir texnologik ishlov berish jarayonidagi bajariladigan amallar va bosqichlarga asoslanadilar. Shundan kelib chiqqan holda tikuvchilik sohani tahlil qilish kasbiy tahlil harakteriga ega bo'ladi.

Amaliy bosqichlari ham kasbiy tahlil asosida amalga oshiriladi. Bunda biror bir jarayon yoki amaliy harakatlar ketma-ketligi asosida bajariladi, masalan:

- ❖ Cho'ntakkaga ishlov berish bosqichlar ketma-ketligi;
- ❖ Cho'ntaklarni tikish texnologiyasi;
- ❖ Cho'ntaklarni tikish turlarini rejalashtirish va tashkillashtirishdagi harakatlar [1, 6-8].

Texnologik jihozlarni ishlatish ko'rsatmalari yoki ma'lum amaliy ko'nikma uchun ishning borishini, mehnatni bosqichlarga bo'lish borasidagi namuna sifatida keltirish mumkin:

Amaliy mashg'ulot ish jarayoni to'g'risidagi texnologik bilim asosida amalga oshiriladigan muayyan bosqichlarga bog'liq bo'ladi.

Tikuvchilik sohani o'zlashtirish yuzasidan quyidagi xulosalarni berish mumkin.

#### **XULOSA**

Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilari uchun tikuvchilik sohasi bo'yicha barcha zarur bilim va tajribalarga, balki boshqa sohalar bo'yicha ham chuqur bilimlarga va ularni yetkazishda turli qiziqarli amaliy topshiriqlar va innovatsion usullarga ega bo'lgan shaxs sifatida namoyon bo'ladi. Bu orqali bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilari oldidagi obro'-e'tibori shakllanadi va doimiy o'zi ustida ishlashi va «har sohadan xabardor» bo'lishi talab etiladi. Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilari amaliy mashqlarni va muammoli vaziyatlarni bilish va bu borada maslahat bera olish uchun u vaqt-vaqti bilan ushbu amaliy mashqlarni qaytarib turishi lozim. Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilari amaliy bilimlar yuzasidan esa tikuvchilik soha bo'yicha yangi adabiyotlarga ega bo'lishi va ko'p o'qish uchun o'zida turtki, shuningdek, qiziqish his etishi kerak [9-11].

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Olimov Kakhramon Tanzilovich, Sayfullaeva Dilafruz Ahmedovna, Khimmataliev Dustnazar Omonovich, Ashurova Sanobar Yuldashevna, Gaffarov Feruz Hasanovich. Teaching Special Subjects for Students with Disabilities in Preparation for the Profession by Using Innovative Educational Technologies. International Journal of Innovative Technology and Exploring Engineering (IJITEE), Volume-9 Issue-1S, November 2019. B.425-429.

2. Dilafruz Ahmadovna Sayfullayeva, Madina Buronovna Akobirova. A communicative approach to teaching students in english of their specialties. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. 2022. B.404-408.

3. Sayfullayeva Dilafruz Ahmadovna, Rustamov Erkin Tohirovich, Rayimova Dilnavoz Dilmurodovna, Kamolova Dilshoda Odilovna. Methodology of using autocad software in

---

developing technical creativity of students. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal.2022.B.661-67.

4. Sayfullayeva D.A Innovative and Individual Approach in Professional and Vocational Training of Young People with Disabilities. Eastern European Scientific Journal. Ausgabe 6-2017 Part I.- P.154-157.

5. Q.M.Abdullayeva, «Tikuvchilik buyumlarini loyihalash va modellashtirish asoslari» adabiyot jamg'armasi nashriyoti T. -2006.162 b.

6. Dilafruz Ahmadovna Sayfullayeva, Kakhkhorov Sobir Kh., Bahronova Sh.I. Increasing the professional creativity of students in teaching specialties. Проблемы современной науки и образования. Научно-методический журнал. 2020. № 12 (157). Часть 2 С.33.

7. Dilafruz Ahmadovna Sayfullayeva, Inamov Dilmirza Dedamirzayevich, Savriyeva Iqbol Bahodirova, Qaxorov Sobir Xudoyberdiyevich. Levels of activation the activities of students/ EPRA International Journal of Environmental Economics, Commerce and Educational Management. 2020.-B 28-31.

8. Dilafruz Ahmadovna Sayfullayeva. «Methodology of using innovative technologies in technical institutions». Psychology and Education. Scopus International Journal.(2021) 58(1).

9. Сайфуллаева Д.А Пути повышения эффективности преподавания специальных дисциплин. International conference on science and education.Turkey.-2021. B.72-74.

10. Sayfullayeva D.A, Rustamov E.T, Rayimova D.D, Jabborova M. J., Faridov M. F. Characteristics of technical creativity in technological education. Innovative technologica methodical research journal.2021.B-37-41.

11. Internet manba: [www.buxdu.uz](http://www.buxdu.uz).